



## Toshkent shahar chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025-yil yanvar-may dastlabki ma'lumot

- I. Chakana savdo tovar aylanmasi
- II. Ulgurji savdo tovar aylanmasi
- III. Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi
- IV. Meta ma'lumotlar
- V. Aloqador boshqa havolalar.

### I. Chakana savdo tovar aylanmasi


2025-yil 1-iyun holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'ssatayotgan tijorat korxonalar soni 13 790 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'ssatayotgan yirik korxonalar soni 205 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 13 585 tani tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-may oylarida Toshkent shahrining chakana savdo tovar aylanmasi 46 167,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning yanvar-may oylariga nisbatan 110,6 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 18 869,2 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 113,4 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 27 298,7 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 108,7 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 492,4 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 113,2 %) tashkil etdi.


\* – norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlari natijalarini qo'shgan holda;

#### Hududlar bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd so'm)



Mavzuga doir havola: <https://siat.stat.uz/reports-filed/2699/meta-data>

Yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik va uyushmagan savdo tovar aylanmasi dinamikasi (*ulushi foizda*)



■ Yirik korxonalar ■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ■ Uyushmagan savdo


## II. Ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025-yil 1-iyun holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 17 983 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 280 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 17 703 tani tashkil qildi.

Toshkent shahar bo'yicha 2025-yilning yanvar-may oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 97 738,0 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 8,6 % ga o'sdi.

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 63 705,3 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 104,6 % ga to'g'ri keldi. Respublikada ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 55,4 % ni tashkil qildi.

### Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)




Mavzuga doir havola: <https://siat.stat.uz/reports-filed/2762/meta-data>

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Bektemir (192,0%), Chilonzor (148,0 %), Mirzo Ulug'bek (145,9 %), Uchtepa (144,1 %) va Mirobod (141,1 %) tumanlarida kuzatildi.



\* – norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



Mavzuga doir havola: <https://siat.stat.uz/reports-filed/2696/meta-data>

### III. Umumi ovqatlanish korxonalari savdo hajmi


2025-yil 1-iyun holatiga umumi ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 5 102 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 68 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 5 034 tani tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-may oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 11 742,5 mlrd so'mga yetdi. 2024-yilning mos davriga nisbatan 11,4 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 56,7 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari hissasiga to'g'ri keldi.

\* – norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;



Umumi ovqatlanish korxonalari savdo hajmi dinamikasi (*mlrd so'm*)



Mavzuga doir havola: <https://siat.stat.uz/reports-filed/2827/meta-data>

Hududlar kesimida umumi ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



#### IV. Meta ma'lumotlar

\*Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi–2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuvi va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlataladi.

**ichki savdo** – yuridik va jismoniy shaxslarning mamlakat ichki bozorida tovar mahsulotlarini sotish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyati. Bunday savdo ikki toifaga bo'linadi ulgurji va chakana savdo;



**ulgurji savdo** – tovarlarni chakana sotuvchilarga qayta sotish (o'zgarishsiz sotish), korporativ mijozlar bilan savdo qilish (masalan, sanoat, tijorat, institutsional yoki professional foydalanuvchilar) yoki boshqa ulgurji sotuvchilarga qayta sotish; bunday savdo shaxslar kompaniyalar nomidan tovarlarni sotib olishda yoki ularga tovarlarni sotishda agentlar yoxud brokerlar sifatida harakat qilishni nazarda tutadi;

**chakana savdo** – tovarlarni sotish kanallaridan qat'iy nazar yangi va foydalanilgan tovarlarni tijorat maqsadlarida foydalanish huquqisiz, asosan, shaxsiy yoki uy iste'moli uchun aholiga qayta sotish (donalab yoki kichik miqdorlarda). Shuningdek, konsignatsiya yoki komissiya asosida sotish bo'yicha komitent nomidan ishlaydigan agentlarning faoliyatini ham o'z ichiga oladi;

#### IV. Aloqador boshqa havolalar

Ulgurji savdo hajmi (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/964/table-data>

Ulgurji savdo aylanmasining o'sish sur'ati (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/2696/table-data>

Chakana savdo aylanmasi hajmi (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/2699/table-data>

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/2700/table-data>

Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/2701/table-data>

Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi o'sish sur'ati (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/2825/table-data>

Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/2827/table-data>

Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'ati (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/2829/table-data>

<b>Chop etishga masul:</b> Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi	<b>Bo'lim boshlig'i o'rinnbosari :</b> B.Mirzoulug'ov Tel: +998712038003 (3540)	<b>Ijrochi:</b> B.Mirzoulug'ov Tel: +998712038003 (3542)	<b>Manzil:</b> 100000, Toshkent sh. Mirobod t. Amir Temur k. 11-uy;
---	---	--	--